



METHODOLOGICAL BASIS OF PREPARING STUDENTS OF THE MEDICAL INSTITUTE TO SOLVING SITUATIONAL PROBLEMS THROUGH INTERDISCIPLINARY INTEGRATION ON THE EXAMPLE OF HYGIENE SCIENCE

¹Y.G.Muydinova

Fergana Medical Institute of Public Health

²Sh.Q.Rustamova

Andijan State Medical Institute

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14233179>

ARTICLE INFO

Received: 23th November 2024

Accepted: 27th November 2024

Online: 28th November 2024

KEYWORDS

Students, interdisciplinarity, knowledge, skills, development, situational tasks, problematic issues, level of complexity, objective examination.

ABSTRACT

According to the purposes of application in the educational process, situational tasks can be classified according to the level of complexity. At the beginning of their studies, students solve very simple problems with clearly structured questions. As their knowledge and skills improve, the tasks become more complicated, that is, to prevent diseases, develop countermeasures and select situations for differential diagnosis or force analysis with the receipt of information, adjust the initial opinion based on new information. such an opportunity arose.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ МЕДИЦИНСКОГО ИНСТИТУТА К РЕШЕНИЮ СИТУАЦИОННЫХ ПРОБЛЕМ ПУТЕМ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ИНТЕГРАЦИИ КАК ПРИМЕР ГИГИЕНИЧЕСКОЙ НАУКИ

¹Ё.Г.Муйдынова

Ферганский медицинский институт общественного здравоохранения

²Ш.К.Рустамова

Андижанский государственный медицинский институт

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14233179>

ARTICLE INFO

Received: 23th November 2024

Accepted: 27th November 2024

Online: 28th November 2024

KEYWORDS

Студенты, междисциплинарность, знания, умения, развитие, ситуационные задачи, проблемные вопросы, уровень сложности, объективное обследование.

ABSTRACT

По целям применения в учебном процессе ситуационные задачи можно классифицировать по уровню сложности. В начале обучения студенты решают очень простые задачи с четко структурированными вопросами. По мере совершенствования их знаний и умений задачи усложняются, то есть предупреждать заболевания, разрабатывать меры противодействия и выбирать ситуации для дифференциальной диагностики или форсировать анализ с поступлением информации,



*корректировать первоначальное мнение на основе
новой информации. появилась такая возможность.*

GIGIYENA FANI MISOLIDA TIBBIYOT INSTITUTI TALABALARINI FANLARARO INTEGRATSIYASI ORQALI VAZIYATLI MASALALARNI YECHISHGA TAYYORLASHNING METODIK ASOSLARI

¹Yo.G'.Muydinova

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

².SH.Q.Rustamova

Andijon davlat tibbiyot instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14233179>

ARTICLE INFO

Received: 23th November 2024

Accepted: 27th November 2024

Online: 28th November 2024

KEYWORDS

*Talabalar, fanlararo, bilim,
ko'nikmalari, rivojlantirish,
vaziyatli vazifalar, muammoli,
savollar, murakkablik darajasi,
ob'ektiv tekshirish.*

ABSTRACT

O'quv jarayonida qo'llash maqsadlariga ko'ra, vaziyatli vazifalarni murakkablik darajasiga ko'ra tasniflash mumkin. O'qishning boshida talabalar aniq tuzilgan savollar bilan juda oddiy muammolarni hal qilishadi. Ularning bilim va ko'nikmalari takomillashgani sari vazifalar murakkablashadi ya'ni kasalliklarni oldini olish, chora tadbirlarni ishlab chiqish hamda differensial tashxis qo'yish uchun vaziyatlarni tanlash, yoki ma'lumotlarning kelishi bilan tahlil qilishga majburlash, olingan yangi ma'lumotlarga qarab dastlabki fikrni tuzatish imkoni paydo bo'ladi.

Mexnat gigiyenasi - profilaktik fan bo'lib ishlovchi organizmga ish jarayonini va ishlab chiqarish muxitini ta'sirini o'rganuvchi va sanitar gigiyenik, davolash profilaktik ishlovchilarning salomatligini saqlashga va ish qobiliyatini oshirishga qaratilgan chora tadbirlarni ishlab chiqadi. Mexnat gigiyenasi fani umumiy va xususiy bo'limlarga bo'linadi.

Umumiy mexnat gigiyenasi-tibbiy profilaktik fanning bo'limi bo'lib, ishlab chiqarish korxonalarida yetakchi omillarga baxo berish, sog'lomlashtirish chora tadbirlarini ishlab chiqish va qo'llash masalalarini o'rganadi.

Xususiy mexnat gigiyenasi-tibbiy profilaktik fanning asosiy bo'limi bo'lib, ishchilarga ishlab chiqarish sharoitining ta'siri, mexnatni tashkil qilish, ish jarayonini va davlat sanitariya nazoratini olib borish, sog'lomlashtirish chora tadbirlarini ishlab chiqish, ishlab chiqarish obyekt va bo'limlarini o'rganadi.

Mexnat gigiyenasi fanidagi situatsion vazifalar o'quv va imtihon jarayonlarining, shu jumladan bitiruvchilarni davlat fanlararo attestatsiyasining majburiy tarkibiy qismi bo'lib, ta'limning ushbu shakliga yo'naltirish nafaqat bilimlarni baholash, balki ishlab chiqarish jarayonidagi ma'lumotlarni malakali tahlil qilish, hulosalar berish, qo'shimcha tekshiruvlarni rejalashtirish va kelajakdagi shifokorlarning muhim kasbiy malakalarini rivojlantirish uchun foydalanish imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Mehnat gigiyena vrachi ish jarayonida turli shakldagi shikastlanishlarni oldini olish, kasbiy kasalliklar, kasbiy zararlanishlar, vaqtinchalik mexnat unumdorligini yo'qotilishi, ishlab chiqarishdagi yoritilganlik, changning organizmga ta'siri, EMMning ta'siri, mikroiklim, ishchilarning



sog'lomlashtirish ko'rsatkichlari, ishchilarning funksional holatini baholay olishlari, ishchining bir kunlik xronometraji, ximyaviy moddalarni qo'llanilishi, ular ta'sirida yuzaga keladigan kasalliklarning asoratlari haqida bilisi va to'g'ri baxolay olishi kerak bo'ladi. Bundan tashqari ishchilarda mexnat unumdorligini oshirish maqsadida shart sharoitlarni yaratish, bo'lajak mexnat gigiyena vrachining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Tibbiyot fanlarini o'qitishda faol o'qitish shakllaridan foydalanish talabalar nafaqat ma'lum bilimlarni olishlari, balki uni aniq amaliy vaziyatda qo'llay olishlari kerakligi bilan izohlanadi [1]. Birinchi navbatda elektron texnologiyalar, vaziyatli masalalar, ta'limning faol shakllari bo'lib, ular bugungi kunda o'quv jarayoniga keng joriy etilmoqda. O'quv jarayonini faollashtirishda texnik vositalardan kompleks va maqsadli foydalanish katta ahamiyatga ega, ammo ta'lim jarayonidagi asosiy vosita o'quvchining faolligi va mutaxassis bo'lishga intilishidir. Faol usullar o'quvchilar bilan mashg'ulotlarning barcha turlarini qamrab olishidir [2].

Zamonaviy pedagogik tayyorgarlikning semantik yuki, asosan, faol aqliy va amaliy faoliyat jarayonida talabalarning bilim va ko'nikmalarni mustaqil ravishda egallashiga qaratilgan [4]. Tibbiyot oliy o'quv yurtlarida zamonaviy elektron o'qitish usullari ta'lim sifatini oshirishga imkon beradi, chunki faol ta'lim turlari va eng yangi ta'lim texnologiyalaridan foydalanish o'quv materialini o'rganishda talabaning faolligi va mustaqilligini oshiradi. Interfaolning o'zaro ta'siri ta'limda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvini qo'llab-quvvatlaydi, o'z-o'zini o'rganishni (jamoaviy, hamkorlikda o'rganish) taklif qiladi natijada o'qituvchi ham, talaba ham ta'lim jarayonining asosiy sub'ektlaridan biri hisoblanadi [6].

O'quv jarayonida qo'llash maqsadlariga ko'ra, vaziyatli vazifalarni murakkablik darajasiga ko'ra tasniflash mumkin. O'qishning boshida talabalar aniq tuzilgan savollar bilan juda oddiy muammolarni hal qilishadi. Ularning bilim va ko'nikmalari takomillashgani sari vazifalar murakkablashib boradi. Vaziyatli maslada ishchilarning dastgox oldida qanday vaziyatda ishlashi, ayol va erkaklarga yuklatiladigan yukning og'irligi, qurilish inshootlarining bosh loyixasidan tortib qabul qilish jarayonigacha bo'lgan vaziyatlarda ishtirok etishi hamda o'ta xavfli yuqumli kasalliklar yuzaga kelganida oldini olish chora tadbirlarini ishlab chiqishi va differensial tashxis qo'yish uchun vaziyatlarni tanlash, ma'lumotlarning kelishi bilan tahlil qilishga majburlash, olingan yangi ma'lumotlarga qarab dastlabki fikrlarini ayta olishi va tuzatish kiritishlari kerak bo'ladi. Ushbu turdagi vazifalarning har biri kichik miniatyuradagi klinik tahlil hisoblanadi. Haqiqiy bemorning nazoratini almashtirmasdan, bunday vazifalar bo'lajak shifokorni amaliy ishlarga tayyorlashi mumkin, chunki ularning har birining yechimi klinik fikrlashning o'ziga xos turidir.

Gigiyena fanlarini o'qitishda muammoli ta'lim turlaridan biri sifatida vaziyatli masalalarni yechish ko'p yillar davomida qo'llanilib kelingan. Klinik holatlar ko'rinishida tuzilgan vaziyatli masalalar ko'rinishifagi savollarga qisqa ko'rinishdagi tushunshalar qo'shilgan bo'lib, situatsion topshiriqlar o'qitishda bilimlarni sinab ko'rish uchun ham, o'rganish uchun ham keng qo'llanilgan. Talabalar va shifokorlar uchun o'z malakasini oshiruvchi ba'zi darsliklar aynan shu shaklda yozilgan (R. Myers, 1998, Harrison, 2008) va boshqalar.



R. Myers va Harrison darsliklarida ham qisqacha anamnestik ma'lumotlar va bemorni ob'ektiv tekshirish ma'lumotlari, qo'shimcha tekshiruv natijalari va kerak bo'lganda tasviriy materiallarga, shuningdek bemorning ahvolidagi dinamik o'zgarishlar haqidagi ma'lumotlar yoritilgan. Vaziyatli masalalardan tashqari savollar tuzilgan bo'lib, har bir ma'lumot bloki uchun bir yoki bir nechta to'g'ri javoblarni tanlash zarurati bilan testlar shakllantirilgan. Bunday muammoni hal qilishda talabalar guruhi har bir talabaning mustaqil ishlashi, vaziyatni izchil rivojlantirish tamoyillarini amalga oshiradi va tibbiy qarorlar qabul qilish, qo'shimcha tekshiruvni rejalashtirish yoki maslahatchilarni jalb qilish ko'nikmalarini ham shakllantiradi va baholaydi.

Multimedia ko'rinishidagi taqdimotlar ikki hil shaklga ega - yuqoridagi shakl va o'quv rejimidagi shakl. Bunda har bir qo'yilgan savolga nafaqat to'g'ri, balki noto'g'ri javoblar, shuningdek, yo'l qo'yilgan xatolarning sabablari tushuntirilgan holda batafsil javob berib boriladi. O'qituvchining ta'lim jarayonida integratsiyalangan vaziyatli masalani talabalarga taqdim etib borishi o'qitish usulining yangicha metodologik shakli hisoblanadi. Tibbiyot institutining uchinchi bosqichigacha bo'lgan davrda Tibbiy profilaktika ishi yo'nalishi va davolovchi yo'nalishidagi talabalarga bir hil klinik fanlardan darslar o'tiladi shu sababli kasalliklarga tashxis qo'yishlari uchun to'g'ri fikrlay olishlari va vaziyatli masalalar yordamida echim topa olishlari muhim hisoblanadi.

Haqiqiy klinik amaliyotda bo'lgani kabi, vaziyatli masalalarda illyustrativ materiallardan ham qo'llaniladi. Masalan: rentgenogrammlar, EKG, ekokardiyografiya ma'lumotlari, kontrastli tadqiqotlarning video yozuvlari, EMM ta'sirlar, dorilarning fizik kimyoviy xususiyatlari va boshqalar. "O'rnatilgan" vaziyatli masalalar ushbu materiallarning talqini va talqiniga tegishli bo'lishi mumkin. Tasviriy material bilan bunday ishlash muhim hisoblanadi. Kelajakda integratsiya orqali vaziyatli muammolarga duch kelganlarida echim topa olishlari hamda kasbiy kompetensiyalardan biri - laboratoriya va instrumental diagnostikaning zamonaviy usullarini egallashga yordam beradi.

Trening rejimidagi vaziyatli masalalar har doim guruhda muhokama qilinadigan mavzu bo'lib, binobarin, agar kerak bo'lsa, uni biznes o'yiniga (talabalar o'rtasida ro'llarni taqsimlash), muayyan muammo bo'yicha muhokamaga aylantirish mumkin. O'qituvchi integratsiyalangan vaziyatli masalalarni, pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda talabalarda, axborot mazmunini va interaktivligini oshirish bilan birga savollar va ma'lumotlarni idrok etish darajasini baholaydi. Odatiy xatolarni aniqlay olishi va talabalar qiyinchiliklarga olib keladigan fikrlarga duch kelganlarida, o'qituvchi echim topa olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Vaziyatli masalani echimini topishda talaba ushbu masala bo'yicha qo'shimcha adabiyotlarni o'rganishga, izlashga va illyustrativ materialni mustaqil izlashga majbur bo'ladi. Vazifani yaratish jarayonida hal qiluvchi rol - maqsadni shakllantirish, vazifalarni aniqlash va aniqlashtirish, asosiy adabiyot manbalarini tavsiya qilish, nazorat qilish va tahrirlash - o'qituvchiga tegishli bo'lib, talaba va o'qituvchi o'rtasidagi hamkorlik va kasbiy hamkorlikni yanada mustahkamlashga yordam beradi. [7].

Ushbu ta'lim texnologiyasidan kundalik o'quv jarayonida tizimli foydalanish o'quvchilarning qiziqishini oshiradi, materialni idrok etishni yaxshilaydi. Ushbu shakl talabalar tomonidan ijobiy qabul qilinadi. O'qituvchi vaziyatli masalalardan foydalanish



jarayonida darsning samaradorligini oshirish maqsadida doimiy ravishda yangi vazifalar ishlab chiqadi va olingan natijalar tahlil qilib boriladi.

Xulosa: shunday qilib, vaziyatli masalalar nafaqat bilimlarni baholash uchun, balki bemor to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlarni malakali tarjda to'plash va qayta ishlash bo'yicha bo'lajak shifokorlarning kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradi. Bunda talaba tashxis qo'ya olishi, qo'shimcha tekshiruvlarni rejalashtira olishi va davolashni tayinlay oladi.

“Pedagogik nuqtai nazardan qaraganda, inson taqdiri bilan bog'liq hikoya alohida mavhum faktdan ancha qimmatlidir” (B.Laun). Bitiruvchilarni davlat fanlararo attestatsiyasining uchinchi bosqichi va mutaxassislarni davlat akkreditatsiyasining yakuniy bosqichi situatsion masalalarni yechish shaklida amalga oshirilayotgani bejiz emas. Kasbiy tanlovlarni o'tkazish maktab va oliy ta'lim sohasida ham mamlakatimizda va xorijda ham qo'llaniladi va kasbiy tanlov maqsadini ko'zlaydi: rivojlanishga qodir eng iqtidorli talabalarni tanlash orqali zamonaviy tibbiyot institutlarida kadrlar tayyorlash sifatini oshirish tizimining asosi sifatida yangi va an'anaviy ta'lim texnologiyalarini yaratish, integratsiyalashgan pedagogik vositalardan foydalanish asosiy o'rinni egallab boradi.

Talabalarda klinik terapevtik va gigiyenik intizomni o'rgatishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan kasbiy kompetentsiya va integratsiyalarni shakllantirish muhim hisoblanadi. Talada bemor haqida ma'lumot to'play olishi, olingan natijalarni tahlil qilishi, sintez qila olishi, jarayonlarga asoslangan holda yordam ko'rsata olishi kerak bo'ladi. Bu jarayonlar kelajakdagi shifokorda klinik fikrlashning shakllanishiga yordam beradi. Ta'lim jarayonida klinik tahlil, bemor nazorati, kasallik tarixini yozish, epikriz va boshqalar kabi an'anaviy usullar yordamida integratsiyalashgan holda dars o'tish talabaning dunyo qarashini boyitadi va dars unumdorligini oshishiga hizmat qiladi. Shunday qilib, Tibbiyot instituti talabalarini fanlararo integratsiyasi orqali vaziyatli masalalarni yechishga tayyorlashning metodik asoslari yordamida darslar tashkillanitirilib borilishi natijasida, o'quv jarayolarining ajralmas qismiga aylanib boradi.

References:

1. Образовательные технологии в высшей медицинской школе: Электронный учебник /коллектив авторов. Под ред. В.Б. Мандрикова. Волгоград; 2016.
2. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. М.: Педагогика; 1989.
3. Мальцева А.Н. Современные методы в учебном процессе медицинского ВУЗа. Современные проблемы науки и образования. 2019;(4). <https://doi.org/10.17513/spno.29040>
4. Ponomareva E.Yu., Rebrov A.P. Implementation of educational technologies in the process of teaching hospital therapy. *South Russian Journal of Therapeutic Practice*. 2022;3(3):116-120. (In Russ.) <https://doi.org/10.21886/2712-8156-2022-3-3-116-120>
5. Nishonov, Y. N., Mamasaidov, J. T., & Isroilov, M. S. (2021). Application of new conservative methods in the treatment of complications of dolichosigma in children. *Asian Journal Of Multidimensional Research*, 10(6), 321-327.
6. Ermatov, N. J., Nishonov, Y. N., Mamasaidov, J. T., & Isroilov, M. S. (2022). MORPHOLOGICAL INDICATIONS OF THE EFFICACY OF A CONSERVATIVE APPROACH TO THE



TREATMENT OF DOLICHOSIGMIA IN CHILDREN. Art of Medicine. International Medical Scientific Journal, 2(3).

7. Mamasaidov, J. T. (2022). IMPACT OF METEOROLOGICAL FACTORS OF LABOR CONDITIONS DURING ORCHARD TREATMENT WITH PESTICIDES ON EMPLOYEES'HEALTH. Art of Medicine. International Medical Scientific Journal, 2(3).

8. Mamasaidov, J. T. (2022). Clinical and biochemical examination of the health of workers to reveal signs of intoxication. Art of Medicine. International Medical Scientific Journal, 2(3).

9. Mamasaidov, J. T. (2021). Morphological Aspects of Toxic Liver Damage. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 8(6), 173-180.

10. Karabayev, M. K., Nishonov, Y. N., Supaeva, A. N., Botirov, M. T., & Mamasaidov, J. T. (2023). Diagnostic and prognostic significance of non-invasive methods of natural indication of liver pathology in experimental animals. In BIO Web of Conferences (Vol. 65, p. 02001). EDP Sciences.

11. Nishonov, Y. N., & Mamasaidov, J. T. (2023). The reaction of hepatocytes to the effects of pesticides. In BIO Web of Conferences (Vol. 65, p. 09003). EDP Sciences.

12. Алгоритмы работы с пациентами в клинике внутренних болезней. Учебное пособие для студентов. Под общей редакцией проф. А.П.Реброва. Саратов: ООО Издательский центр «Наука»; 2017.

13. Ребров А.П., Пономарева Е.Ю., Рощина А.А. с соавт. Самостоятельная подготовка по внутренним болезням в тестах и задачах с ответами и пояснениями. Пособие для студентов. Саратов: Изд-во Саратов. мед. ун-та; 2016.

14. Репина Е. Г. Студенческое олимпиадное движение как инструмент поиска одарённой молодёжи и педагогической работы с ней: принципы организации и опыт проведения. Самарский научный вестник. 2017;6(3):297-302. ELIBRARY ID: 29937516

15. THE CONTRIBUTION OF THE FOUNDERS OF MEDICINE TO THE SCIENCE OF HYGIENE AND THE EMPIRICAL DATA THE COLLECTED B. Soliyev, Y.G. Muydinova, G. K. Mukhammadova, D. T. Ismailov 51-54 2023-04-24 Том 3 № 4 Part 2 (2023): Евразийский журнал медицинских и естественных наук <https://www.in-academy.uz/index.php/EJMNS/article/view/13158>

16. Оптимизация и эколого-гигиенические аспекты водоснабжения населенных пунктов (обзор литературы) Азизова Ф.Л., Акромов Д.А., Шеркузиева Г.Ф. "Journal of clinical and preventive medicine" (Klinik va profilaktik tibbiyot jurnali) Научный журнал №1. Фергана.-2022.-С.56-60 <http://repository.tma.uz/xmlui/handle/1/2749>

17. Распространении паразитов нецентрализованного водоснабжения Азизова Ф.Л. Central Asian journal of medical and natural sciences. Volume:03 Issue:06/ nov-dec 2022 issn:2660-4159-С.186-

189 <https://www.cajmns.centralasianstudies.org/index.php/CAJMNS/article/view/1191>

18. Подготовка воды в военно-полевых условиях Теоретические проблемы экологии и эволюции Ф.Т.Абдувалиева VII Люблинские чтения «Качество воды и водные биоресурсы» VII. Тольятти.-2020.-с.213-214 https://api.scienceweb.uz/storage/publication_files/179/65/54a2fc1f1405_179-full-60e68cfcbbbe8.pdf#page=214



19. Ichimlik suvining sifat monitoringi natijalari Azizova Ф.Л. Материалы международной научно-практической онлайн конференции «Гигиена окружающей среды и охрана здоровья населения, имплантируемые биоматериалы, проблемы и их решения». Фергана.-2022.-С. 180-186 <http://repository.tma.uz/xmlui/handle/1/2094>
20. Ibrohimovna, M. S. (2019). BASICS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES THROUGH INTERCULTURAL COMMUNICATION COMPETENCE IN MILITARY EDUCATIONAL INSTITUTIONS. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).
21. Musayeva, S. I., & Mengliyeva, S. S. (2022). Kursantlarning madaniyatlararo rivojlantirish.
22. ПРИМЕНЕНИЕ ЭЛЕМЕНТОВ ИНТЕГРИРОВАННОГО ОБУЧЕНИЯ В ПРАКТИКЕ МЕДИЦИНСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ
23. АМАНБАЕВ, Ж. (2022). НАРКУЛОВА ИРК Технология организации самостоятельной работы в высших военных образовательных заведениях Республики Узбекистан. МОЛОДОЙ УЧЕНЫЙ Учредители: ООО" Издательство Молодой ученый".- 2022, 23, 136-139.
24. Ашурова Манзура Джалолдиновна Муйдинова Ёқутхон Гиязидиновна Ахмедов Рустам Набиевич Саидова Сохиба Абборовна Ёкубова Мохинур Баходиржон қизи Ферганский медицинский институт общественного здоровья RE-HEALTH JOURNAL Фергана.-2022 <https://scholar.google.ru/citations> С-126-129